



**“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TARKIBIY
TUZILMALARI XODIMI TOMONIDAN XIZMAT
SAFARLARI, XALQARO VA BOSHQA RASMIY
TADBIRLAR MUNOSABATI BILAN OLINISHI MUMKIN
BO‘LGAN SOVG‘A QIYMATI, SHUNINGDEK UNI
TASARRUF ETISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

**UTGH
00154269-63:2025**

“O‘ztransgaz” AJning
2025-yil “15” 12 dagi 200-son
buyrug‘iga 9-ilova

**“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TARKIBIY TUZILMALARI XODIMI
TOMONIDAN XIZMAT SAFARLARI, XALQARO VA BOSHQA RASMIY
TADBIRLAR MUNOSABATI BILAN OLINISHI MUMKIN BO‘LGAN SOVG‘A
QIYMATI, SHUNINGDEK UNI TASARRUF ETISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**



**“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TIZIM
TASHKILOTLARI XODIMI TOMONIDAN XIZMAT
SAFARLARI, XALQARO VA BOSHQA RASMIY
TADBIRLAR MUNOSABATI BILAN OLINISHI MUMKIN
BO‘LGAN SOVG‘A QIYMATI, SHUNINGDEK UNI
TASARRUF ETISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

**UTGH
00154269-63:2025**

MUNDARIJA

1- Bob. Umumiy qoidalar	5
2- Bob. Xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan taqdim etilgan sovg‘ani qabul qilish talablari	7
3- Bob. Xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan taqdim etilgan sovg‘aning qiymati va uni tasarruf etish	8
4- Bob. Yakuniy qoida	9
“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlarilari xodimi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga ilova	10
JO‘NATMALAR RO‘YXATI.....	11

1- Bob. Umumiy qoidalar

1. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida amalga oshiriladigan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar (bundan buyon matnda xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar deb yuritiladi) munosabati bilan sovg‘a olishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar bilan bog‘liq bo‘lmagan xizmat safarlari munosabati bilan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimining sovg‘a olishi taqiqlanadi.

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati Ish yuzasidan sovg‘alar va mehmondo‘stlik belgilarini qabul qilish bandida batafsil ma’lumotlar berilgan.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

sovg‘a — “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimiga xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bepul taqdim etilgan, moddiy qimmatga ega bo‘lgan mol-mulk yoki beg‘araz ko‘rsatilgan xizmat;

xalqaro tadbirlar — “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari nomidan, uning rasmiy vakillari hamda xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida o‘zaro hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish, aloqalarni rivojlantirish, tajriba almashish maqsadida tashkil etiladigan va o‘tkaziladigan tadbirlar, xususan O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasining xorijiy mamlakatga, xorijiy mamlakat delegatsiyasining O‘zbekiston Respublikasiga tashrifi bilan bog‘liq tadbirlar;

rasmiy tadbirlar — “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlarida yuklatilgan vazifa va funksiyalardan kelib chiqib, jamiyat nomidan, uning rasmiy vakillari ishtirokida tashkil etiladigan, muayyan maqsadlarga erishishga qaratilgan tadbirlar (rasmiy qabul, marosim, uchrashuv, anjuman, seminar, brifing, simpozium, taqdimot, davra suhbatlari va boshqa tadbirlar);

xizmat safari — Rahbar yoki uning o‘rinbosarlarining buyrug‘iga (qarori, farmoyishiga) asosan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi o‘zining doimiy ish joyidan boshqa joyga (O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki uning hududidan tashqari) xizmat vazifasini va topshirig‘ini bajarish uchun muayyan muddatga yuborilishi;

sovg‘a beruvchi — xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimiga sovg‘a taqdim etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs vakili;

Sovg‘alar reestri — “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi tomonidan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan qabul qilingan sovg‘alar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ro‘yxati;

mehmondo‘stlik belgisi — xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash va etiket qoidalariga muvofiq nonushtaga, kofe-breykka, tushlikka, kechki ovqatga va ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlariga taklif qilish.

3. Mazkur Nizom talablariga rioya etish “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlarining barcha xodimlari uchun majburiydir.

4. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan o‘zlarining xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini ko‘zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan har qanday sovg‘alar olish taqiqlanadi. Bundan xodim tomonidan alohida xizmatlari uchun “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlarining tegishli qarori asosida olingan sovg‘alar, shuningdek musobaqalar va tanlovlarda erishgan yutuqlari, davlat bayramlari, nishonlanadigan sanalar hamda boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan mukofotlash natijasida olingan sovg‘alar mustasno.

5. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan o‘zi yoki boshqa shaxslar uchun sovg‘a taqdim etilishini so‘rashiga yoki talab qilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

6. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimining xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan uning oila a‘zolariga taqdim etilgan sovg‘a xodimga berilgan sovg‘a deb hisoblanadi.

7. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari rahbari buyrug‘iga (qaroriga, farmoyishiga) asosan:

sovg‘aning qiymatini aniqlash va uni saqlash, Sovg‘alar reestrini yuritish “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlarining xo‘jalik bo‘linmasi (bundan buyon matnda bo‘linma deb yuritiladi) (xodimi) tomonidan;

sovg‘ani “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari balansiga kirim qilish moliya-iqtisod bo‘linmasi (xodimi) tomonidan;

sovg‘alar bilan bog‘liq masalalarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘linmasi (xodimi) tomonidan amalga oshiriladi.

2- Bob. Xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan taqdim etilgan sovg‘ani qabul qilish talablari

8. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi tomonidan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a quyidagi talablarga javob berishi lozim:

O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, ichki idoraviy hujjatlari hamda ushbu Nizom talablariga muvofiq bo‘lishi;

sovg‘a uni beruvchi tomonidan aniq bir xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan ixtiyoriy taqdim etilgan bo‘lishi;

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi tomonidan ochiq va oshkora qabul qilinishi;

Jamiyatning obro‘-siga (nufuziga) putur yetkazmasligi;

manfaatlar to‘qnashuvi yoki korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmasligi, xususan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimining xizmat faoliyatida xolis qaror qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatadigan majburiyatni yuzaga keltirmasligi.

9. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi sovg‘ani qabul qilish jarayonida sovg‘a beruvchidan sovg‘aning qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarni (sovg‘aning qiymatini tasdiqlovchi savdo chekini yoki savdo kvitansiyasini yoxud boshqa hujjatlarni) so‘rab olishi mumkin.

10. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimiga taqdim etilgan tez yaroqsiz holga keluvchi mahsulotlar (tabiiy guldasta, donalik shirinliklar), shuningdek kanselyariya to‘plamlari (taqvim, buklet, plastmassali ruchka, kundalik va bloknot) sovg‘a sifatida rasmiylashtirilmaydi hamda ushbu sovg‘alar xodim tomonidan o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etiladi.

11. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi unga xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan mehmondo‘stlik belgisi sifatida bildirilgan taklifni qabul qilishi mumkin.

Bunda, “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi mehmondo‘stlik belgisi sifatida bildirilgan taklifning beg‘arazligiga shubha sezgan taqdirda, ushbu taklifni darhol rad etishi va aloqa vositalari orqali bu haqda korrupsiyaga

qarshi kurashish bo‘linmasini ogohlantirishi shart.

3- Bob. Xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan taqdim etilgan sovg‘aning qiymati va uni tasarruf etish

12. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan unga taqdim etilgan sovg‘ani ushbu tadbirlardan qaytib kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida bo‘linmaga sovg‘aning qiymatini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar (sovg‘aning qiymatini tasdiqlovchi savdo cheki yoki savdo kvitansiyasi yoxud boshqa hujjatlar) mavjud bo‘lsa, ushbu hujjatlar bilan birga taqdim etadi, bundan mazkur Nizomning 10-bandida nazarda tutilgan sovg‘alar mustasno.

13. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi tomonidan sovg‘ani ho‘jalik ishlari bilan shug‘ullanuvchi bo‘linmaga topshirilishi to‘g‘risidagi topshirish va qabul qilish dalolatnomasi (bundan buyon matnda dalolatnoma deb yuritiladi) rasmiylashtirilgunga qadar sovg‘aning butligi va saqlanishi uchun javobgarlik xodim zimmasida bo‘ladi.

14. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi tomonidan ho‘jalik ishlari bilan shug‘ullanuvchi bo‘linmaga topshirilgan har qanday sovg‘a bo‘yicha dalolatnoma ushbu bo‘linma tomonidan ikki nusxada tuziladi. Bunda, bo‘linma tomonidan ushbu dalolatnomaning birinchi nusxasi mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq shakldagi Sovg‘alar reestrda sovg‘ani ro‘yxatga olgan holda “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimiga qaytariladi, ikkinchi nusxasi ushbu bo‘linmada saqlanadi.

15. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimida sovg‘aning qiymatini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo‘lmasa, ho‘jalik ishlari bilan shug‘ullanuvchi bo‘linma tomonidan sovg‘aning qiymati aniqlanadi.

Bunda, bo‘linma tomonidan sovg‘aning bozor narxi savdo do‘konlari, internet hamda boshqa manbalar va usullar orqali o‘rganilib, uning o‘rtacha qiymati aniqlanadi va uning natijasi bo‘yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi.

16. Sovg‘aning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to‘rt) baravariga teng yoki undan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ekanligi aniqlangan taqdirda, sovg‘a “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimida qoldiriladi va u tomonidan o‘z ixtiyoriga ko‘ra tasarruf etiladi.

Bunda, bo‘linma tomonidan sovg‘aning “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimiga topshirilganligi bo‘yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

Sovg‘aning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to‘rt) baravaridan ortiqligi aniqlangan taqdirda, sovg‘a moliya-iqtisod bo‘linmasi tomonidan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari balansiga kirim qilinadi.

17. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari balansiga o‘tkazilgan sovg‘adan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlarining ehtiyoji uchun foydalanishga ruxsat etiladi.

18. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimi xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan o‘ziga taqdim etilgan sovg‘alarni qabul qilishning qonuniyligi to‘g‘risida har qanday shubha paydo bo‘lganda, shu zahoti ushbu masala bo‘yicha bevosita o‘zining yuqori turuvchi rahbariyatini yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘linmasini xabardor qilishi shart.

Sovg‘aning qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarning ishonchliligi va haqiqiyliги bo‘yicha shubhalar mavjud bo‘lgan taqdirda taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va haqiqiyliги korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘linmasi tomonidan tekshirilishi mumkin.

19. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlari xodimining xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan uning oila a‘zolariga taqdim etilgan sovg‘a mazkur bobga muvofiq tasarruf etiladi.

4- Bob. Yakuniy qoida

20. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.



**“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TIZIM
TASHKILOTLARI XODIMI TOMONIDAN XIZMAT
SAFARLARI, XALQARO VA BOSHQA RASMIY
TADBIRLAR MUNOSABATI BILAN OLINISHI MUMKIN
BO‘LGAN SOVG‘A QIYMATI, SHUNINGDEK UNI
TASARRUF ETISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

**UTGH
00154269-63:2025**

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlarilari
xodimi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy
tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati,
shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi
Nizomga ilova

**Xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning
tizim tashkilotlari xodimi tomonidan qabul qilingan sovg‘alar bo‘yicha
REESTR**

T/r	Xodim tomonidan sovg‘a qabul qilingan sana	Sovg‘ani qabul qilgan xodimning F.I.O va lavozimi	Sovg‘aning tavsifi	Sovg‘aning berilish sababi/munosabati	Sovg‘a beruvchining ma’lumotlari*	Sovg‘aning qiymati**	Sovg‘aning tasarruf etilishi***	Sovg‘ani topshirgan xodimning imzosi va sana	Mas’ul xodimning imzosi va sana
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
2.									
...									

Izoh:

* xorijiy mamlakat va tashkilotning nomi, sovg‘a beruvchining F.I.O va lavozimi;

** sovg‘aning qiymatini tasdiqlovchi savdo cheki yoki savdo kvitansiyasi yoxud boshqa hujjatlar mavjud bo‘lsa, shu asosida, agar mavjud bo‘lmasa, sovg‘aning qiymatini aniqlash asosida to‘ldiriladi;

*** sovg‘aning xodim tasarrufiga o‘tkazilganligi yoki “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tizim tashkilotlariga topshirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoziladi.



**“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TIZIM
TASHKILOTLARI XODIMI TOMONIDAN XIZMAT
SAFARLARI, XALQARO VA BOSHQA RASMIY
TADBIRLAR MUNOSABATI BILAN OLINISHI MUMKIN
BO‘LGAN SOVG‘A QIYMATI, SHUNINGDEK UNI
TASARRUF ETISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

**UTGH
00154269-63:2025**

JO‘NATMALAR RO‘YXATI

UTGH 00154269-63:2025 Hujjat shifri	_____ Tahrir raqami	_____ Amalga tatbiq qilish sanasi
Jo‘natiladigan hujjat nomi	“O‘ZTRANSGAZ” AJ VA UNING TIZIM TASHKILOTLARI XODIMI TOMONIDAN XIZMAT SAFARLARI, XALQARO VA BOSHQA RASMIY TADBIRLAR MUNOSABATI BILAN OLINISHI MUMKIN BO‘LGAN SOVG‘A QIYMATI, SHUNINGDEK UNI TASARRUF ETISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOM	
T/r	Hujjat jo‘natiladigan bo‘linma / mansabdor shaxsning nomi	
1	“O‘ztransgaz” AJ ijroiya apparati departamentlari, mustaqil bo‘limlari va xizmatlari	
2	“O‘ztransgaz” AJ tarkibiy bo‘linma va tashkilotlari	
3	“O‘ztransgaz” AJ tarkibiy bo‘linma va tashkilotlari bo‘ysunuvidagi bo‘limlar, xizmatlar, sexlar, uchastkalar va b.	